

XORIJIY TILNI O'RGANISHDA NEYROPEDAGOGIKANING  
AHAMIYATI

*Bozorova Farangiz Ergash qizi*

*Shahrisabz davlat Pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi*

*1.22-guruh talabasi*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Xorijiy tilni o'rganishda neyropedagogika juda muhim ahmiyatga ega, chunki u miyaning ishlash mexanizmlarini inobatga olgan holda o'qitish usullarini o'rganadi.. Neyropedagogika miyadagi nevrologik jarayonlar, xotira, diqqat, o'rganish usullari va motivatsiya kabi omillarni hisobga olgan holda samarali o'qitish strategiyalarini ishlab chiqadi.Neyropedagogiga - bu inson miyasi funksiyalarini tushunish asosida o'rganish tajribasini optimallashtirish uchun nevrologiya tamoyillari, kognitiv psixologiya va pedagogikani birlashtirgan fanlar aro yondashuvni tashkil qiladi tilni o'zlashtirish, saqlash va qo'llashni rag'batlantirishda miyaga asoslangan o'qitish strategiyalari va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitlarining samaradorligini o'rganish va talabalar va o'qituvchilar o'rtasida neyropedagogika aralashuvlar haqidagi ijobili tasavvurlarni o'rganadi.Neyropedagogiga fani bosh miya yarimsharlari faoliyatini o'rganish jarayonida til o'rganish faoliyatini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** Nevrologiya, kognitiv, strategiya, funksiya, bosh miya, xotira, diqqat, idrok, hayol.

**Abstract.**

In his article, neuropedagogy is very important in foreign language learning, as it studies teaching methods taking into account the mechanisms of brain functioning. Neuropedagogy develops effective teaching strategies by taking into account factors such as neurological processes in the brain, memory, attention, learning methods and motivation. Neuropedagogy is an interdisciplinary approach that combines the principles of neuroscience, cognitive psychology and pedagogic to optimize the learning experience based on an understanding of the functions of the human brain. It studies the effectiveness of brain-based teaching strategies and supportive learning environments in promoting language acquisition, retention and use, and examines positive perceptions of neuropedagogy interventions among students and teachers. Neuropedagogy studies language learning activities in the process of studying the activity of the cerebral hemispheres.

**Keywords:** Neurology, cognitive, strategy, function, brain, memory, attention, perception, imagination.

Neyropedagogika fani miyaning ishslash mexanizmlarini inobatga olgan holda o‘qitish usullarini o‘rganadi.Bu fan miya yarimsharlari faoliyatini o‘rganish jarayonida til o‘rganish faoliyatini nevrologik jarayonlarini kognitiv xususiyatlarini o‘rganadi. Bir guruh nevropedagog va psixolog olimlar chet tili ta’limida miyaga asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llash muhimligini tasdiqlaydi. Talabalar va o‘qituvchilar neyropedagogik aralashuvlar haqida ijobiylar fikrlarni bildirdilar, ularning individual ta’lim ehtiyojlarini qondirish, faollikni oshirish va til o‘rganish tajribasini yaxshilash imkoniyatlarini ta’kidladilar. tilni o‘rganish bilan bog‘liq kognitiv jarayonlarni yaxshiroq tushunish, miyaga asoslangan o‘qitish strategiyalari va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitlarini amalga oshirish bilan birgalikda tilni bilish, saqlash va tildan tashqari oliy ta’lim muassasalarida qo‘llashni yaxshilashga yordam beradi. Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar turli xil o‘quvchilar profillari, til darajalari va ta’lim kontekstlari uchun neyropedagogik usullarning optimal kombinatsiyasi, shuningdek, nevrologiya tamoyillarini o‘qituvchilar tayyorlash dasturlari va texnologiya takomillashtirilgan o‘quv muhitiga integratsiya qilishning potentsial afzallikkari haqidagi bilimimizni oshirishi mumkin. chet tillarini o‘rganish natijalarini oshirishda neyropedagogikaning muhim hisoblanadi.va ushbu fanlar aro sohada doimiy tadqiqot va ishlanmalar zarur. Til o‘rganish bilan bog‘liq kognitiv jarayonlarni chuqurroq tushunishga ko‘maklashish va bugungi globallashgan dunyoda talabalar duch keladigan noyob muammolarga javob beradigan innovatsion o‘qitish amaliyotlarini joriy etish orqali,o‘qituvchilar xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha yanada samarali va qiziqarli tajribalarni o‘tkazishga hissa qo‘sishlari mumkin. Chet tillarini o‘rganishda muvaffaqiyatga erishishda ikkala yarimsharlarning o‘zaro birgalidagi harakati talab etiladi.Buni o‘quvchilar,talabalar, tilshunos va tarjimonlar misolida ko‘rish mumkin. O‘quvchi tilning nutq faolligi uning yetakchi yarimsharlariga bog‘liqdir. Bunda chap yarimsharlilar òzlarining ratsional-mantiqiy tafakkurlari tufayli matn bilan qiyinchiliklarsiz ishlasalargina o‘qituvchi talabaga javob berishlari mumkin. Chapyarimshari yetakchi bo‘lgan o‘quvchilar ot va fe’l bilan erkin ishlaydilar, matnni to‘liq takrorlaydilar,biroq matnning qisqacha mazmunini bayon qilishda qiynaladilar-matndagi asosiy xolatlarini og‘zaki bayon qilishlariga matndagi mayda detallar xalaqit beradi. Texnik matnni o‘qishda chapyarimsharlar kòproq faollashadi, badiiy matnlarni o‘qishda esa—òng yarimsharlar. Shuning uchun öngyarimshari yetakchi o‘quvchilar nutqida fe’l va olmoshlar kam bo‘lib , kontekstdan tashqaridagi sözlarni eslab qolishga qiynaladilar. Shu sababli lug‘at bilan bajariladigan barcha mashqlarni tekst matnnini o‘qishdan oldin bajarish tavsiya etilmaydi.Neyropedagogikada insonning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor beriladi:

- 1) uning geni;
- 2) yoshi;

3) jinsi.

Shu jihatdan inson bosh miya yarim sharlari assimetriyasiga (yunoncha nomutanosib, simmetriyaning yo'qligi yoki buzilishi) ushbu fan alohida e'tibor qaratadi. Chunki bosh miya yarim sharlarida inson geniga xos bo'lgan neyronlar, ya'ni asab to'qimalari mavjud bo'lib, ular insonning salomatligida va baxtli yashashida muhim o'rinni tutadi. Agar neyronlar sog'lom rivojlansa, insonning geni uning yosh va jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda rivojlanib boradi. Shunigdek, insonning yosh xususiyatlari mos ravishda bosh miyaning chap va o'ng yarim sharlari rivojlanib boradi. Agar bu yarim sharlar yosh davrlarga (go'daklik, kichik mакtab yosh, o'smirlik va yoshlik bosqichlarga) mos ravishda rivojlanib borsa, insonning bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishi talab darajasida kechadi. Bundan tashqari, insonning bosh miya chap va o'ng yarim sharlari uning jinsiga ham mos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bunda ayol va erkakning jinsi imkoniyatlari o'ziga xos bo'lganligi uchun uning rivojlanishida insonning bosh miya yarim sharlari o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Ta'kidlanganidek, asosan o'g'il bola va qiz bolalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda gender xoslik qoidasiga asosan ta'lim va tarbiya jarayoni amalga oshiriladi. Shu sababli bunda o'quvchilarning bosh miya yarim sharlariga mansubligini aniqlab olishga tayanish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, qiz bola o'quvchilarda ko'p hollarda chap miya yarim sharining faoligi mavjud bo'ladi. Shu sababli ularda ijodiy fikrlash, his-hayajonga berilish xususiyatlari ustuvor bo'lganligi uchun ular nutq va til o'zlashtirish bo'yicha yuqori darajada ko'nikmaga ega bo'ladilar, bu qiz bola o'quvchilarning ko'pchiligi bosh miya yarim sharining Brok zonasiga mavjudligini ko'rsatadi.O'g'il bola o'quvchilarda bosh miyaning yarim shari faolligi kuzatiladi, shu sababli ularda muammolarni hal qilishga bo'lgan qiziqish va matemetik fikrlash ko'nikmalari tez tarkib topadi, bu hol o'g'il bola o'quvchilarning bosh miyaning Vernik zonasiga mansubligini ko'rsatadi.Bundan tashqari neyropedagogikada diqqatni jamlash ham muhim hisoblanadi. Chunki miya yangi axborotni qabul qilish, qayta ishlash va uzoq muddatli xotirada saqlash jarayonlarida diqqat muhim rol o'ynaydi. Diqqatni jamlagan holda o'rganish miyaga yangi so'zlar, grammatik qoidalar va talaffuzni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi.Tarqoq diqqat bilan o'rganilgan material miya tomonidan yaxshi qayta ishlanmaydi va tez unutiladi.Diqqatli o'rganish orqali tilga moslashish jarayoni tezlashadi, ya'ni odam yangi so'zlarni tezroq tushunib, ishlata boshlaydi.Masalan, yangi tilni o'rganayotganda, diqqatning sustligi so'zlarning noto'g'ri tushunilishiga yoki eslab qolish qiyinlashishiga olib kelishi mumkin. Xayol va idrok qilish inson ongingin asosiy funksiyalaridan bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'langan. Idrok (persepsiya) orqali atrof-muhitni tushunsak, xayol (fantaziya) yordamida esa bu ma'lumotlarni qayta ishlab, yangi tasavvurlar yaratamiz.Real hayotdagi voqealarni biz ongimizda idrok qilamiz va bu jarayon tasavvurimizda aks etadi.Aynan idrok hayol

diqqat orqali chet tillarini o‘rganish qulay kechadi. Aynan shuning uchun ham qiz bollarda his hayajonga beriluvchan va taassurotlari keng bo‘lganligi uchun til o‘rganish jarayoni oson kechdi.

Xulosa qilib aytganda chet tillarini o‘rganish jarayoni bevosita neyropedagogiga fani bilan bog’liq holda kechadi. Pedagog xodimlar o‘quvchilarning miya yarim shar faolyatlarini aniqlab ularning qobiliyati asosida fanni o‘zlashtirishlariga yordam berishi lozim hisoblanadi. bundan tashqari dars qilish jarayoni diqqatni jamlash va idrok qilish orqali fan yaxshi õzlashtiriladi. Dars qilish vaqtি ertalabki soat 04:00 dan 06:00 va kechki soat 20:00 dan 22:00gacha xotirada saqlab qolish oson kechadi va miya faoliyati yaxshi õzlashtiradi.

**Foydalanilgan adabyotlar ro’yxati:**

1. Xodjaev B.X. Neyropedagogik bilimlardan foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish. Respublika ilmiy konferensiysi materiallari. 2010 yil 27-28 may. - Samarqand, 2010. - B. 174-175.
2. Klemintovich I.P., Stepanov V.G. Neyropedagogika. - Moskva, 2015.
3. J.G’ulomov.Neyropedagogika
4. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)
5. [www.ceberlelinka.ru](http://www.ceberlelinka.ru)